

## RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISH MASALALARI

*Xaydarova Munira O'tkir qizi,  
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti  
muniraxaydarova3@gmail.com*

**Annotatsiya.** O'quv jarayonini tashkil etishda raqamlashtirish davrda filologiya fanidagi muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar tahlili muhim hisoblaniladi. Tadqiqotda tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarida raqamli texnologiyalarini joriy etish jarayonining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, xorijiy tillarni intensiv o'qitish masalalariga alohida e'tibor berilgan bo'lib unda dars jarayonida ishtirok etadigan video, ovoz va matn formatlaridan qanday foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlari.** Raqamlashtirish, filologik masalalar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, tarjima texnologiyalari.

## DİJİTALLEŞME ÇAĞINDA FİLOLOJİ BİLİMLERİ ÖĞRETİMİNİN SORUNLARI

*Haydarova Müniye Utkir'in kızı,  
Taşkent devlet ulaştırma üniversitesi doktora öğrencisi*

**Özet.** Filolojideki sorunların, fırsatların ve bakiş açılarının analizi, dijitalleşme çağında eğitim sürecinin düzenlenmesinde önemli kabul edilmektedir. Çalışma, dilbilim, çeviribilim ve edebiyat araştırmalarında digital teknolojilerin tanıtılması sürecinin önemini göstermektedir. Ayrıca yabancı dillerin yoğun öğretimi konularına özel önem verilerek derste yer alan video, ses ve metin formatlarının nasıl kullanılacağına ilişkin talimatlar verildi.

**Anahtar kelimeler.** Sayısallaştırma, filologik konular, dilbilim, edebiyat çalışmaları, çeviribilim, çeviri teknolojileri.

## ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

*Хайдарова Мунира Уткир кизи,  
докторант Ташкентского государственного транспортного университета*

**Аннотация.** Анализ проблем, возможностей и перспектив филологии считается важным в организации образовательного процесса в эпоху цифровизации. Исследование показывает важность процесса внедрения цифровых технологий в лингвистике, переводоведении и литературоведении. Кроме того, особое внимание было уделено вопросам интенсивного обучения иностранным языкам, а также даны инструкции по использованию задействованных в ходе урока видео, аудио и текстовых форматов.

**Ключевые слова.** Цифровизация, вопросы филологии, языкоznания, литературоведения, переводоведения, технологий перевода.

## ISSUES OF TEACHING PHILOLOGICAL SCIENCES IN THE ERA OF DIGITALIZATION

*Xaydarova Munira Utkir kizi,  
doctoral student at the Tashkent state transport university*

*Abstract.* The analysis of problems, opportunities and prospects in the field of philology is considered important in the organization of the educational process in the era of digitization. The study shows the importance of the process of introducing digital technologies in linguistics, translation studies and literary studies. In addition, special attention was paid to the issues of intensive teaching of foreign languages, and instructions were given on how to use video, audio and text formats involved in the course of the lesson.

**Keywords.** Digitization, philological issues, linguistics, literary studies, translation studies, translation technologies.

Bugungi raqamli asrda barcha fan sohalari tubdan o'zgarish va yangilanish yo'lidan bormoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotining barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayoni faol amalgalashmoqda. Filologiya ta'lismi yo'naliishi ham bu jarayondan mustasno emas. An'anaviy til va adabiyotshunoslik tarmoqlari yangi texnologiyalar bilan boyib, raqamli muhitda yangi ilmiy yo'naliishlar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirish davrida filologiya fanida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar, muammolar hamda istiqbolli yo'naliishlar tahlil qilinadi.

Raqamli ta'lismi – bu ta'lismi jarayonini yanada samarali va qulay qilish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalar va vositalardan foydalanishdir. U o'z ichiga elektron o'qitish, masofaviy kurslar, virtual sinfonalar, turli o'quv dasturlari hamda interaktiv multimedia resurslari kabi ta'larning texnologik ko'rinishlarini oladi.

Raqamli ta'larning afzallikkari ko'p bo'lib, ulardan eng muhim – keng ko'lama foydalanish imkoniyati, moslashuvchanlik, individual yondashuv asosida ta'lismi olish va istalgan vaqtida, istalgan joyda o'quv materiallariga erkin kirish imkonidir. Shuningdek, bu ta'lismi turi videodarslar, interaktiv testlar hamda virtual tajribalar orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga, tushunishga va yodda saqlashga yordam beradi. Raqamli ta'lismi, bundan tashqari, guruh bo'lib o'rganish, xalqaro miqyosda aloqa o'rnatish va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi. O'qituvchilar esa ta'lismi yanada interaktiv va jalb etuvchi tarzda tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish hamda tezkor fikr-mulohazalar taqdim etish imkoniga ega bo'ladilar [2, 120 b].

Zamonaviy texnologiyalarning tezkor taraqqiyoti natijasida filologiya sohasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan raqamli vositalar, kompyuter ilovalari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yangicha tus olmoqda. Bu holat til, adabiyot va madaniyatni o'rganish uslublari, ularni taqdim etish shakllari hamda ilmiy metodologiyada yangi yo'naliishlar va imkoniyatlar eshigini ochadi. Filologik izlanishlarda raqamlashtirish muhim o'rin egallab, bu til korpuslari, lingvistik ontologiyalar, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari va raqamli madaniy meros loyihalari orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston misolida, milliy til korpusi hamda lingvistik manbalarni shakllantirish orqali davlat tilining xalqaro maydonidagi nufuzini oshirish va raqamli platformalardagi ishtirotini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, "Filologiya masalalari" kabi ilmiy nashrlar hamda xalqaro ilmiy yig'inlar mazkur sohadagi o'zgarish va yangiliklarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilishda yetakchi rol o'yamoqda.

Ushbu maqola raqamli transformatsiya sharoitida filologiya yo'naliishing dolzarb muammolarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda ilmiy-metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda raqamlashtirishning milliy va xalqaro filologik rivojlanishdagi o'rni atroflicha tahlil etiladi [1, 618 b].

Filologiya – bu inson tilini, adabiyotini, madaniyatini o'rganadigan fanlar majmuasidir. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik kabi yo'naliishlarni qamrab olgan bu fan zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga majbur. Bugungi raqamlashtirish jarayoni filologiyaning har bir bo'limiga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, o'zbek adabiyotining nodir durdonalari elektron shaklga o'tkazilmoqda, tilshunoslikda esa korpus lingvistikasi orqali til birliklari chuqur tahlil qilinmoqda. Ilgari faqat qo'lyozma yoki bosma shaklda

mavjud bo'lgan adabiy meros namunalarini raqamlashtirish orqali ularni keng jamoatchilikka yetkazish mumkin bo'ldi. Masalan, "Kitob.uz", "Ziyonet" platformalari orqali o'zbek va jahon adabiyoti namunalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Undan tashqari Frazeologik birliklar ko'pincha so'zma-so'z tarjima qilinadi, natijada madaniy konnotatsiyalar, obrazlilik va mazmun yo'qoladi. Bu esa tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamlashtirish davrida filologiya fani yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon filologik tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ta'lism sifati va manbalarga kirish imkoniyatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda ehtiyyotkorlik, ilmiy asoslash va madaniy kontekstga hurmat tamoyillariga amal qilish talab etiladi. Kelajakda filologiya va texnologiyalarni uyg'unlashtirish – zamonaviy ilmiy yondashuvning ajralmas qismiga aylanadi. Shuningdek, raqamli ta'lism uzluksiz ta'lism olish, kasbiy malakani oshirish va turli fanlar bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni egallash yo'lida keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jabborova M.G. Raqamlashtirish davrida filologiya masalalari// Arab tili globallashuv davrida: Innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent – 2024, 618 b.
2. Saidova G.A., Mamayeva M.A. Hozirgi kunda raqamli ta'limga ahamiyati// Raqamli ta'lism muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lism samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Guliston – 2024, 120 b.
3. Toshtemirov D.E., Yuldashev O'.A., Raqamlashtirish sharoitida ta'lism sifatini oshirishga yo'naltirilgan elektron ta'lism resurslaridan foydalanish// "Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent – 2023, 25 b.